



## PROVERBS FROM SHUHRAT'S WORK "GOLDEN RUST"

**Palvonnazarova is the daughter of Hayotkhan Jamoladdin**

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of Turkish Languages, 2nd level student of Uzbek language education in foreign language groups

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233708>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2024

Online: 21<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Stable combinations, proverb, figurative meaning, language, expressions, linguistics, grammar;*

### ABSTRACT

*Proverbs are one of the samples of folk oral creativity that have been preserved to us through word of mouth over the centuries. Proverbs are used figuratively. In this article, we have studied and analyzed proverbs from Shuhrat's work "Golden Rust". In the article, the characteristics of folk proverbs are widely analyzed in order to increase interest in folk proverbs from a literary point of view, to increase the artistry of the work, and to ensure fluency of the language.*

## SHUHRATNING "OLTIN ZANGLAMAS" ASARIDAGI MAQOLLAR

**Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233708>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2024

Online: 21<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*Barqaror birikmalar, maqol, ko'chma ma'no, matal, iboralar, lingvistika, grammatika;*

### ABSTRACT

*Maqollar asrlar mobaynida bizga og'izdan-og'izga o'tish orqali saqlanib kelayotgan xalq og'zaki ijodi na'munalaridan biri hisoblanadi. Maqollar ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ushbu maqolada Shuhratning "Oltin zanglamas" asaridagi maqollarni o'rganib, tahlil qilganmiz. Maqolada xalq maqollariga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va til ravonligini ta'minlash uchun undan keng foydalanishdagi xususiyatlar keng tahlil etiladi.*

Grammatik shakldan gap holida shakllangan, xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan barqaror brikmalarga maqol deymiz. Maqollar har doim yaxlit holatda bo'ladi, tarkibidagi so'zlarni o'zgartirib bilmaymiz, o'zgartirsak u maqol hisoblanmaydi. Maqollar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi. Odamning olasi ichida, O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l, To'g'ri o'zadi, egri ozadi, Ko'ngli qoraning yuzi qora, Bekorchining beti yo'q, qozon osar eti yo'q, Bodom po'sti bilan, odam do'sti bilan, Tomosha-ko'rniki zamona-zo'rniki, asirlikdan o'lim yaxshi, Arslon bolasi arslon bo'lur, sichqon bolasi-sichqon kabi barqaror birikmalarga maqola deymiz. Maqollarni asrlar davomida xalqning og'zaki ijodidan kelayotgan



na'munalar hisoblanadi. Maqolni xalq yaratadi. Xalq bekordan-bekorga yaratmagan shu har bir maqolning tagida qanchadan-qancha ma'noni borligini bilishimiz uchun biz har birini yaxshilab o'rganib, tahlil qilishimiz kerak bo'ladi. Maqollar tugal ma'no anglatadi.

O'zbek tilida barqaror birikma sifatida maqol, matal, ibora e'tirof etiladi. Tilshunoslikning barqaror birikmani o'rganuvchi bo'limi paremiologiya (lotincha parema - "barqaror", logos - ta'limot), uning lug'atini tuzish bilan mashg'ul bo'luvchi soha paremiografiya (lotincha parema - "barqaror", grapho - yozmoq) deyiladi. Tilda ikki yoki undan ortiq so'zning bog'lanishidan hosil bo'lgan birlik ko'p. Masalan, so'z birikmasi, so'z qo'shilmasi, gap, qo'shma so'z, tasviriy ifoda, maqol, matal va hokazo. Shuning uchun dastlab, turg'un bog'lanish va erkin bog'lanishni bir-biridan farqlash kerak. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zning bir grammatik butunlik, ma'noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so'z bog'lanishi erkin bog'lanish deyiladi. So'z birikmasi va gap erkin bog'lanishga kiradi. Chunki so'z birikmasi va gap nutq jarayonida hosil qilinadi. ikki yoki undan ortiq so'zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog'lanishi barqaror, turg'un bog'lanishni tashkil qiladi. Barqaror birikma qo'shma so'z va erkin so'z birikmasidan quyidagi xususiyati bilan farq qiladi:

1. Barqaror birikmada birdan ortiq so'z birikib ko'chma ma'no ifodalaydi.
2. Barqaror birikmani tashkil etgan barcha so'z shu gap tarkibida butunligicha bir bo'lak yoki bir gap vazifasida keladi.
3. Barqaror birikmaning tarkibiy qismi qat'iy bir qolipga kirgan bo'ladi. Demak, alohida rasmiylashgan, tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadigan, yaxlitligicha qo'llanish xususiyatiga ega, tayyor holda mavjud, obrazli, jozibali, ma'no jihatdan shakllangan so'z bog'lanmasi barqaror birikma deyiladi. Barqaror birikmani "buzish-unga so'z kiritish, almashtirish, olib tashlash mumkin emas. Maqol tugal fikr bildirishi, ibora bir so'zga teng tushuncha anglatishi, matal esa ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi sodda gapdek "chala" fikr ifodalashi bilan o'zaro farqlanadi. Mazmuni obrazli va ko'chma xarakterda bo'lishi bilan o'xshash.<sup>1</sup>

### **"Oltin zanglamas" asaridagi maqollar:**

*Sabr so'ngi-sariq oltin* (12-b), *Jannat battar yonardi, sirti kulib, ichi yig'lardi* (12-b), *Ardoqlab oqqa ko'chirayotgan xatingga siyoh to'kilgandek yuraging achishadi.* (12-b)

Ular sevishib turmush qurishgan, yulduzlari juda o'ng kelgan, bir-birlarini ko'pdan sinashgan kishilardek *fazilatlarini oshirib, nuqsonlarini yashirib*, boshqalar havas qilgudek tinchtotuv yashashdi. (12-b), Hoy bolam, qulog'ingda bo'lsin: joy olsang qo'ni-qo'shnisini surishtir. *Qo'shning tinch sen tinch* (17-b), Tabiat shunaqaki, *to'rvasini teshgan sichqonga ham indamaydi.* (21-b), Mirsalimning *sovuniga kir yuvib o'rganib qolgan xotini darrov javob qildi.* (24-b), *Yopiq qozon yopig'ligicha qoldi.*(47-b), Puli bor farmon bilan, *puli yo'q armon bilan yashaydi.*(47-b), "Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramaydi" dedi-yu, emizikli bolani tashlab ketaberdi.(50-b), *Tirnoqqa zor bo'lsa, yonadi!*(51-b), Donolar "Yetim qo'zi boqsang, og'zi burning yog' etar, yetim bola asrasang, og'zi burning qon etar" deb bekorga aytmagan.(52-b), *Ilonning yog'ini sanagan* Mirsalim Sodiqni shunaqa *avrab tashladiki, bechora lom-mim deyolmay* qoldi.(53-b), Bas, asalning ham ozi yaxshi, bo'lmasa tomog'ingizni bo'g'adi, bosqi qiladi.(63-b), Bir shoir aytgan

<sup>1</sup> Mengliyev B Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent- 2008



ekan: *“Yolg’onning taxtida shoh bo’lguncha, rostgo’yning chorbog’ida giyoh bo’l”* deb.(66-b), Ular *“o’qigan-guliston, o’qimagan-go’riston”* degan maqolni esga olib, shu yil Toshkentni yalpi savodxon shaharga aylantirishga so’z berdilar.(78-b), Ikki ryumkadan ichilgandan keyin, g’ilofi bilan qoziqda osig’liq turgan tanburni olib, *“Sozli tordan - nozli kuy chiqadi”* degandek zerikmasdan sozladi. (81-b), Avval erining ulfatlarini bilish kerak, *yaxshi yaxshiga yondashtiradi, yomon yo’ldan adashtiradi.* (90-b), *Er xo’rligi-yer xo’rligi.* (92-b), *To’g’ri bo’lsang soyang egri tushmaydi.* (94-b), Aytib bering, Sodiqlon, *do’stning achchiq so’zidan nodon xafa bo’ladi.*(102-b), *“Ishtonsizning cho’pdan hadigi bor”* degandek, Mirsalimga tegib ketdi. (102-b), *“Omadi ketgan kishining ataladan tishi sinadi”* degandek, nima ish qilsa, ketiga ketardi.(113-b), *Sharmandaga shahar keng* degandek, Musharrafga baribir, u battar baland keladi. (114-b), Hay, jon bolam, bu nima deganingiz, *yaxshi gapga ham farishta omin deydi, yomon gapga ham.*(115-b), *Bir kun urish bo’lgan yerdan qirq kun baraka ko’tariladi,* deyishadi.(115-b), *Xurlik xotinni, xaroblik xayvonni xunuk qiladi,* deb shuni aytadi- da.(116-b), Faqat ko’nglidan o’tdi: ‘Qiz xotini- uy xotini, juvon xotini- yo’l xotini!’ (119-b), *“Danagidan mag’zi shirin”* degandek, Adolat xola nevarasiga butun mehrini to’kib, erkalab o’tirardi, unga qo’shiq aytardi:

Muratjonim xon- xoni, Kukalamzor maydoni.

Hamma yomon ko’rsa ham, Buviginasining joni!

Hozir Maratning dadasi keladi.(128-b), *Tekinning minnati ko’p, mehnatning ziynati,* deb hech nolimas, butun umidini uz bilagi bilan, uzi tilagidan kutar, juda mo’min-qobil odam edi.(132-b), *Yopiq qozon yopiqligicha qolsin,* ayt, tayinlab ayt qizingga. (142-b), Ana shundan keyin, Sodiqlon *yetti uxlab, tushiga kirmagan gaplar boshlandi.* (148-b), *Mijja qoqqani gumon.*(153-b), *It hidlab topmas yerda yurgan* edim. (155-b), Siz hammadan xafa bo’laver mang, *doim yomondan yaxshi ko’p, haromdan halol.* (167-b), Yetti uxlab tushiga kimagan ayblar unga taqalyapti.(159-b), *Ha uyqu o’likka teng,* bolam dedi etagini teshib ketgan sichqoncha ham ozor bermaydigan Adolat xola (172-b), Buni qarang, odamning *olasi ichida bo’ladi* deb, aytadi-da, bo’lmasa, Sodiqlon shunaqa odam deb kim o’ylabdi (194-b), *To’rga tushgan baliq qarmoqdan cho’chimaydi,* nimasini yashiraman. Tuhmat!(201-b), *To’g’ri, chivin birlashsa, filni holdan toldirarkan* (201-b), *Haqiqat to’q danak, ko’msa ham ko’karib chiqadi* (201-b), *Qishning guli olov, ham o’zingni, ham ko’zingni yashnatadi.* (207-b), Bu so’z Dilvorxo’janing maza-bemaza gaplarini eshitib, bema’ni qiliqlarini ko’rib, to’lib yurgan Sodiqlonning *sabr kosasini toshdirgan so’nggi tomchi* bo’ldi. (213-b), Sho’roning mehri *qonim bilan kirgan, jonim bilan chiqadi.* (213-b), *Qishning qahri toshni yoradi, mehri temirni eritadi.*(223-b), *Tinch turgan suv buziladi, oqib turgani yaxshi.*(223-b), To’s-to’polonni ko’rmaysizmi, *sichqonning ini minga tanga bo’lib ketdi.*(232-b), *Har kimning go’ri boshqa, to’ri boshqa.*(232-b), *Tili boshqa, dini boshqa..*(233-b), Lekin Mirsalim *burgaga achchiq qilib ko’rpa kuydirib o’tirmasdan* yana mashqini davom ettirishga kirishdi. (249-b), *Garchand maktabga el boshiga tushgani - er boshiga tushgani* deb maqol aytib mamnun kirib kelgan..... (254-b), Xudo nasib qilsa to’rt ko’z tugal ko’rishamiz. *Qirq yil qirg’in bo’lsa ajal yetgan o’ladi* (255-b), *Asl aynamas, oltin zanglamas.*(271-b), *O’lik bo’lib go’rda, tirik bo’lib to’rda yo’qsan.* (288-b), *Qora kunda topishgan do’stlar ajralmas bo’ladi.* (296-b), U hali *chuchvarani xom sanab, sichqon bo’lib, filga talanib yuribdi.*(334-b), *Pes bilan pes qorong’uda topishar,* degan maqol borku xuddi shuning o’zi (347-b), *“Temirni zang, odamni g’am kemiradi”* deb ko’nglidan o’tkazdi Qodir, yalpiz hidi kelib turgan shaftoli qoqidan og’ziga solar ekan. (361-b), *Yomonni balo ham urmaydi.* (361-b), Endi xohlasang *kunduz chiroq yoqib*



*qidir!* (364-b), Boshlig'ingizni oqlamang kimligi ko'rinib turibdi: *dunyoga o't ketsa, ketsin mening kabobim pishsa bas*, deydiganlarga o'xshaydi.(376-bet)

Maqollardagi barcha xususiyatlar atroflicha o'rganiladi. Maqol va matallar frazeologik birliklardan tarkibiy va grammatik jihatdan farq qiladi: ular to'liq jumlaning anglatadi. Ularning ajralmas semantik mazmuni tushunchalarga emas, hukmlarga asoslanadi. Maqollar o'z va ko'chma ma'noda bo'ladi. Maqollarda yumor, kesatliqlar sezilib turadi. Ular hajm jihatdan kichkina bo'ladi ma'no jihatdan esa juda ham keng ma'noni anglatadi. Shuhratning qanchalik mahorat bilan maqollardan foydalanganini ko'rib odamning ko'zi quv naydi. Asardagi maqollar ham mavzu ham voqealar ham juda mahorat bilan yozilgan.

## References:

1. Shuhrat Oltin zanglamas Toshkent-2023
2. Mengliyev B Hozirgi o'zbek tili Toshkent-2018
3. Mengliyev B Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent- 2008
4. T.Mirzayev O'zbek xalq maqollari Toshkent-2016
5. O'zbek xalq maqollari - 1988. 2 – jild